

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI**

**ASQAROV DILMUROD MO‘SAJON O‘G‘LI**

**AMIRIY VA QO‘QON ADABIY MUHITIDA  
MUXAMMASNAVISLIK AN‘ANASI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti  
(filologiya fanlari)

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

UO‘K: 821.512.133.09-1

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Content of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD)  
on Philological sciences**

**Asqarov Dilmurod Mo‘sajon o‘g‘li**

Amiriy va Qo‘qon adabiy muhitida muxammasnavislik an‘anasi ..... 3

**Askarov Dilmurod Musajan ugli**

Amiri and the tradition of Muhammasnavism in the literary environment of  
Kokand ..... 23

**Аскарлов Дилмурод Мусаджан угли**

Амири и традиция мухаммаснавиизма в литературной среде Коканда.....45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 49

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI**

**ASQAROV DILMUROD MO‘SAJON O‘G‘LI**

**AMIRIY VA QO‘QON ADABIY MUHITIDA  
MUXAMMASNAVISLIK AN‘ANASI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti  
(filologiya fanlari)

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil2428 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) veb-sahifaning www.tai.uz hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Asadov Maqsud Husenovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponenlar:**

**G'ayipov Dilshod Qadambayevich,**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Boltayeva Gulchehra Shokirovna,**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Farg'ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "27" dekabr soat 14.00dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100060, Toshkent, Shahrisabz tor ko'chasi, 5. Tel.: (99871) 233-36-50; fax: (99871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz.

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (84 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent, Ziyolilar ko'chasi, 13. Tel.: (99871) 262-74-58.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "16" dekabr da tarqatildi.  
(2024-yil "16" dekabr dagi 11 raqamli reyestr bayonnomasi).



**B.To'xliyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
filol.f.d., prof.

**R.Barakayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
filol.f.n., prof.

**U.Hamdammov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi,  
filol.f.d., prof.

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida Qo‘qon adabiy muhitini yuzaga keltirgan ijtimoiy-madaniy omillar, uning asoschisi Umarxon Amiriy ijodiy merosi, xususan, adabiy ta’sir, an’ana va o‘ziga xoslik masalalarini atroflicha yoritish, shoh shoirning o‘zbek mumtoz adabiyotida muxammas adabiy shakli rivojidadagi o‘rnini asoslash, XIX asrda Qo‘qonda ijod qilgan so‘z san’atkorlari yaratgan muxammaslarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini tavsiflash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida adabiy turlar va janrlarni tarixiy hamda nazariy jihatdan tadqiq etish badiiy adabiyotning ko‘plab muammolarini hal etishga imkoniyat yaratishi isbotlangan. Garchi badiiy asarlarning poetik xususiyatlari, an’anaviylik va izdoshlik masalalariga qaratilgan ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, hali tadqiq qilinmagan jihatlar ham mavjud. Jumladan, har bir janr va adabiy shaklni monografik tarzda tadqiq etish, ularning shakllanish bosqichlarini ilmiy dalillash adabiyotning ta’sir kuchini teran tushunishga, so‘z san’atining imkoniyatlarini to‘g‘ri baholashga yordam beradi. Shu boisdan badiiy matn mazmun-mohiyatini uning poetik xususiyatlari bilan uyg‘unlikda o‘rganish, she’riy janr va shakllarning o‘ziga xos jihatlarini ijodkor dunyoqarashi hamda adabiy muhit tamoyillari asosida ochib berish zamonaviy adabiyotshunoslikning asosiy vazifalaridan biri hisoblanmoqda.

O‘zbek adabiyotshunosligida mumtoz so‘z san’atkorlari yaratgan ijod namunalarini atroflicha o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Zero, “o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini har tomonlama o‘rganish va keng targ‘ib qilish, uni bugun yuz berayotgan murakkab jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etib, zarur xulosalar chiqarish ma’naviy hayotimizni yuksaltirishda, hech shubhasiz, katta ahamiyatga ega”<sup>1</sup>. Shu ma’noda, Qo‘qon adabiy muhiti vakillari ijodida muxammas adabiy shaklining mohiyati, ifoda tarzi va tasvir imkoniyatlarini adabiyotshunosligimizdagi yangicha qarash va tahlillar bilan ilmiy jihatdan atroflicha yoritib berish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiqi va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 19-oktabrdagi PQ-4865-son “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”, 2023-yil 25-yanvardagi PQ-20-son

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш. Эркин Воҳидов ижодига бағишланган адабий фестивалъ қатнашчиларига табриги. 23.05.2024. <https://president.uz/oz/lists/view/7253>

“Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Muxammaslar o‘zbek mumtoz adabiyotining tarixiy taraqqiyoti, xususan, asrlar davomida shakllangan adabiy an‘analarni mushohada etish, so‘z san‘ati ta‘sir kuchi, badiiy imkoniyatlarini ochib berishda o‘ziga xos mavqega ega bo‘lsa-da, hanuzgacha Amiriy va o‘zbek mumtoz adabiyotida muxammasnavislik rivoji, jumladan, Qo‘qon adabiy muhitida yaratilgan muxammaslarning o‘ziga xos xususiyatlari, adabiy ta‘sir va badiiy mahorat masalalari maxsus tadqiqot obyekti bo‘lmagan. Holbuki, Amiriy va Qo‘qon adabiy muhitida muxammas tadarijini o‘rganish adabiyotshunoslikda o‘z yechimini kutayotgan nazariy muammolardan biridir. Shunga qaramay, muxammas bir qator olimlarning diqqatini jalb etgan va u haqda jahon adabiyotshunosligida ko‘pgina fikr-mulohazalar bildirilgan. Jumladan, mumtoz adabiyotshunosligimizda birinchi marta Shayx Ahmad Taroziy musammat va uning bir turi bo‘lgan muxammas xususida ayrim nazariy mulohazalarni bildirgan<sup>1</sup>.

XX asr boshlarida muxammasning shakliy belgilari borasidagi ba‘zi qarashlar Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy ishlarida keltirilgan<sup>2</sup>. Musammatlar, shu jumladan, muxammas va taxmis bilan bog‘liq fikr-mulohazalar A.Hayitmetov, Y.Is‘hoqov, O.Nosirov, S.Jamolov, M.Ziyovutdinov, A.Abdug‘afurov, R.Orzibekov, S.G‘aniyeva, D.Salohiy, M.Asadov, Q.Ergashev, S.Rafiddinov, E.Ochilov, B.Rajabova, N.Afoqova, D.Yusupova, G.Xalliyeva, D.G‘oyipov, G.Saidg‘aniyeva, T.Ruziboyev, G.Boltayeva kabi o‘zbek adabiyotshunoslari tadqiqotlarida ham uchraydi<sup>3</sup>. Bular orasida muxammas adabiy shakli, uning

---

<sup>1</sup> Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий, Фунуну-л-балоға. (Нашрга тайёрловчилар Ҳ. Болтабоев, Ж.Жураев). – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2016. – Б. 48-56.

<sup>2</sup> Абдурауф Фитрат. Адабиёт қоидалари. Танланган асарлар 5 жилдлик. 4-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б. 41-43; Айний С. Асарлар. Саққизинчи том. – Тошкент, 1965. – 420 б.

<sup>3</sup> Қаранг: Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Тошкент: O‘zbekiston, 2015. – Б. 76-79; Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – 168 б; Носиров А., Жамолов С., Зиёвутдинов М. Ўзбек классик шеърини жанрлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б. 113-120; Абдуғафуров А. Буюк бешлик сабоқлари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1995. – Б. 113-121; Orzibekov R. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Adabiyot, 2006. – 272 б; Ганиева С. Лутфий ва Навоий шеърини: классикларимиз ижодида анъана / Шарқ классик филологияси илк тўплам. – Тошкент, 2009. – Б. 63; Shu muallif. Мавлоно Лутфий Навоий нигоҳида // O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati, 2010. 5-сон; Афокова Н. Жаҳид лирикасида мусаммат. – Тошкент: Фан, 2005. – Б. 6-15; Салоҳий Д. Навоий назмиёти. – Самарқанд: Зарафшон, 2013. – Б. 86; Эргашев К. Некоторые

taraqqiyot bosqichlari, badiiyati atroflicha yoritilgan R.Orzibekov, T.Ruziboyev va G.Boltayevalarning tadqiqotlari xarakterlidir. Xususan, professor R.Orzibekov muxammasning lugʻaviy maʼnosi, shakliy belgilariga baho bergan boʻlsa<sup>1</sup>, adabiyotshunos T.Ruziboyev Navoiy taxmisleri, ularning ulugʻ shoir ijodida tutgan oʻrni xususida toʻxtalgan va muxammasning tashtir, tardiya kabi turlari borasida bahs yuritgan<sup>2</sup>. Adabiyotshunos G.Boltayeva oʻzbek adabiyotida yaratilgan muxammaslarni monografik jihatdan tadqiq qilgan<sup>3</sup>.

Qoʻqon adabiy muhitida muxammas adabiy shakli va uning takomili borasida P.Qayumov, A.Qayumov, N.Jabborov, I.Adizova, Z.Qobilova, N.Muhitdinova, A.Dehqonov, D.Zohidova, M.Joʻrayev, B.Isakovalarning tadqiqotlarida u yoki bu munosabat bilan toʻxtab oʻtilgan<sup>4</sup>.

Rus adabiyotshunoslaridan Y.Bertels, I.Filshtinskiy, L.Frizman, I.Stebleva, tojik adabiyotshunoslaridan A.Mirzoyev, B.Sirus, S.Imronov, Sh.Rahmonov, R.Musulmonqulov, J.Hikmatov, D.Hakimov, turk adabiyotshunoslaridan Banarlı Nihad Sâmi, ozarbayjon adabiyotshunoslaridan H.Arasli, J.Nagiyeva, N.Mustafayeva singari olimlarning tadqiqotlarida muxammas adabiy shakli rivoji haqida turli ilmiy-nazariy qarashlar bayon etilgan<sup>5</sup>. Ular orasida Y.Bertels va

---

аспекты государственной деятельности Алишера Навои. – Ташкент: Фан, 2009. – 56 с; Рафиддинов С. Мажоз ва ҳақиқат. – Тошкент: Фан, 1995. – 168 б; Очилов Э. Бир ҳовуч дур. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – 240 б; Shu muallif. “Қошингга тегузмағил қаламни...” // Ишонч, 2005, 28 январь; Oʻsha muallif. Амирийнинг Бедил ғазалларига мухаммаслари / “Амирий ва Қўқон адабий муҳити” муҳити мавзуидаги республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент: Tamaddun, 2017; Ражабова Б. Муштарак адабий ходисалар. – Тошкент: Muharrir, 2018. – 180 б.; Юсупова Д. Алишер Навоий тахмислари // Шарқ юлдузи, 2013, 2-сон. – В. 143; Халлиева Г. Огаҳий мусамматлари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2019; Ғайипов Д. Огаҳийнинг бадий маҳорати. Филол.фан.д-ри ... дисс. – Тошкент, 2021. – 284 б.; Saidganieva G. The development of classical poetical genres in Kokand literary environment //ACADEMICIA. Vol.10, Issue 9, Sept 2020, Spl Issue, – P. 14-16; Ruziboyev T. Taxmis genezisi, tadriji, janr xususiyatlari va poetikasi (Alisher Navoiy anʼanalari asosida). Filol.fan.b.fals.d-ri ... diss. – Namangan, 2023. – 131 b; Boltayeva G. Oʻzbek sheʼriyatida muxammas janri: genezisi, badiiy takomili. Filol.fan.d-ri (DSc) ... diss. – Toshkent, 2024. – 266 b.

<sup>1</sup> Орзібеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 71.

<sup>2</sup> Ruziboyev T. Taxmis genezisi, tadriji, janr xususiyatlari va poetikasi (Alisher Navoiy anʼanalari asosida). Filol.fan.b.fals.d-ri (PhD) ... diss. – Namangan, 2023. – 131 b.

<sup>3</sup> Boltayeva G. Oʻzbek sheʼriyatida muxammas janri: genezisi, badiiy takomili. Filol.fan.d-ri (DSc) ... diss. – Toshkent, 2024. – 266 b.

<sup>4</sup> Қаюмов П. Хўқанд тарихи ва унинг адабиёти: (материаллар ва хотиралар). Нашрга тайёрловчи А.Қаюмов; масъул муҳарир ва сўзбоши муаллифи О.Жўрабоев. – Тошкент: Tamaddun, 2011. – 380 б; Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити (XVIII – XIX аср). Филол.фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1961; Shu muallif. Қўқон адабий муҳити. – Тошкент: Фан, 1961; Oʻsha muallif. Қўқон адабий муҳити. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. Жабборов Н. Фуркатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси. Филол.фан.д-ри ... дисс. – Тошкент, 2004. – 298 б; Адизова И. Увайсий шеърятда поэтик тафаккурнинг янгилиниши. Филол. фан.д-ри ... дисс. – Тошкент, 2020. – 266 б; Кобилова З. Бадий ижодда таъсир ва издошлик масалалари (Амирий шеърят мисолида). Филол.фан. д-ри ... дисс. – Фарғона, 2020. – 277 б; Мухитдинова Н. Мирҳасан Садоний ва унинг адабий мероси (шеърят поэтикаси, ғоявий-бадий таҳлил масалалари): Филол.фан.номз. ... дисс. – Самарқанд, 2017 – 244 б; Дехқонов А. Муҳаййир ва унинг адабий мероси. Филол. фан. номз. ... дисс. – Фарғона, 2021. – 131 б; Isakova V. Uvaysiy sheʼriyatida irfoniy mazmun va “Karbalonoma” dostoni. Filol. fan. b. fal. d-ri (PhD) ... diss. – Toshkent, 2023. – 143 b.

<sup>5</sup> Бертельс Е.Э. Избранные труды. I том. История персидско-таджикской литературы. – М.: ИВЛ, 1960. – 562 с.; Shu muallif. Избранные труды. IV том. Наваи и Джами. – М.: ИВЛ, 1965. – 498 с.; Фильштинский И.М. Арабская классическая литература. – М.: Наука, 1965. – 311 с.; Shu muallif. Арабская литература в Средние века. VIII–IX вв. – М.: Наука, 1978. – 291 с.; Oʻsha muallif. История арабской литературы. V – начало X века. – М.: Наука, 1985. – 342 с.; Фризман Л.Г. Жизнь лирического жанра. – М.: Наука, 1973. – 145 с.; Стеблева И.В. Поэзия тюрок VII–VIII веков. – М.: Наука, 1965. – 148 с.; Shu muallif. Развитие тюркских поэтических форм в XI веке. – М.: Наука, 1971. – 300 с.; Oʻsha muallif. Теория жанров литератур Востока. – М.: Наука, 1985. – 263 с.; Мирзоев А. Сайидо и его место в истории таджикской литературы. – Сталинабад, 1947. – 158 с.; Сирус Б. Арузи тоҷики. – Душанбе: Нашриёти давлатии Тоҷикистон, 1963. – 250 с.; Имронов С. Взгляд

I.Braginskiylarning turkiy she'r tizimlari, jumladan, musammat turlariga bergan baholari diqqatga molik. Professor Y.Bertels Navoiy muxammaslarini tahlil qilib, ularning shakli, mavzu ko'lami, ma'no olami xususida ham ayrim xulosalar bildirgan. E'tiborlisi, olim Lutfiyning Navoiy va keyingi davr ijodkorlariga ta'siri masalasini bevosita muxammas adabiy shakli namunalari vositasida dalillagan<sup>1</sup>.

A.Mirzoyev, R.Musulmonqulov, D.Hakimov tadqiqotlarida ko'proq fors-tojik adabiyotida yaratilgan muxammaslarning poetik xususiyatlari yoritilgan. Jumladan, D.Hakimov XII – XIX asrlar Sharq adabiyoti, jumladan, fors-tojik she'riyatida muxammasning shakllanishi va ilk namunalari atroflicha o'rgangan.

Dissertatsiyani yozishda o'zbek va chet el adabiyotshunoslarining nomlari qayd etilgan tadqiqotlariga tayanildi va zaruriyat darajasida ulardan foydalanildi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari, jumladan, "To'rt jildlik "Alisher Navoiy ensiklopediyasi"ni nashr etish" (2021 – 2023) davlat dasturi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Amiriy va o'zbek adabiyoti, xususan, Qo'qon adabiy muhiti vakillari ijodida muxammas janri namunalari g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini adabiy ta'sir, an'ana va o'ziga xoslik tamoyillari asosida atroflicha ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

- o'zbek mumtoz adabiyotida muxammas adabiy shakli va uning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

- Amiriygacha bo'lgan davr adabiyotida muxammas adabiy shaklining tutgan o'rnini va taraqqiyot bosqichlarini aniqlash;

- Amiriy devonidagi muxammaslarning g'oyaviy-badiiy jihatlarini dalillash;

- Qo'qon, xususan, Amiriy va Xiva adabiy muhiti shoirlari ijodidagi muxammaslarni qiyosan o'rganish orqali ularning mushtarak va farqli belgilarini oydinlashtirish;

- Qo'qon adabiy muhitida yaratilgan muxammaslarning o'zbek mumtoz adabiyoti rivojida tutgan o'rnini belgilashdan iborat.

---

на мусамматный мухаммас // Садои Шарқ, 1983, № 4. – С. 92-99; Рахмонов Ш. Мусаммат, его формирование и эволюция. – Душанбе: Дониш, 1987. – 172 с; Мусульманкулов Р. Персидско-таджикская классическая поэтика (VII–XV вв.). – М.: Наука, 1989. – 222 с; Хикматов Дж. Мухлис Бадахшани и его мухаммасы. АҚД. – Душанбе, 2010. – 24 с; Хакимов Д. Формирование жанра мухаммас в персидско-таджикской литературе XII – XIX вв. АҚД. – Душанбе, 2017. – 24 с.; Banarlı Nihad Sâmî. Resimli türk edebiyâtî târihi. I. – Istanbul: Milli eğitim basimevi, 1983. – B. 209; Arash Hâmid. Böyük Azərbaycan şairi Füzuli. – Bakı: Azərbaycan Uşaq və Gənclər Ədəbiyyatı, 1958. – 312 s.; Shu muallif. Azərbaycan ədəbiyyatı tarixi və problemləri. – Bakı: Gənclik, 1998. – 732 s.; Nağıyeva Cənnət. İki təxmis. Azərbaycan Elmlər Akademiyası Məruzələri. – Bakı, 1985. – S. 11; Mustafayeva N. Füzuli və müasirlərinin müxəmməsləri barədə. Risalə. Araşdırmalar toplusu. 12-ci kitab. – Bakı: Elm və Təhsil, 2016. – S. 83-97; Shu muallif. XX əsr Azərbaycan ədəbiyyatında müxəmməs janrında yazılmış şeirlərin mövzu dairəsi. – Bakı: Elm və Təhsil, 2020. – S. 143-153; O'sha muallif. Жанр «мухаммас» в Азербайджанской литературе XVIII века. file:///C:/Users/GLHF/Desktop/; Искадарова С.А. Эволюция метрического и силлабического стихосложения в башкирской поэзии начала XX века. АҚД. – Уфа, 2013. – 24 с.; Литературоведческая терминология в башкирском языке. АҚД. – Уфа: Башкирский государственный университет, 2016. – 42 с.

<sup>1</sup> Бертельс Е.Э. Избранные труды. IV том. Наваи и Джами. – М.: ИВЛ, 1965. – С. 59.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Amiriyning 2017-yil nashr qilingan “Devon (I jild, o‘zbekcha she’rlar)”i, Feruz, Nodira, Uvaysiy, Dilshodi Barno, Anbar Otin, Xon, Furqat, Muqimiy, Ogahiy, Rojii, Yoriy, Tabibiy, Niyoziy devonlari olindi.

**Tadqiqotning predmetini** Qo‘qon va Xiva adabiy muhitida yaratilgan muxammaslar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda tarixiy-qiyosiy, tavsiflash, biografik va struktural metodlardan foydalanildi.

**Dissertatsiya tadqiqotining ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Amiriy va Qo‘qon adabiy muhiti vakillari ijodida muxammasning shakllanishi, taraqqiyot tamoyillari, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari ochib berilgan;

Amiriy muxammaslarining mavzu ko‘lami, ma’no qamrovi, badiiy o‘ziga xosligi taxmis va mustaqil tarzda yaratilgan muxammaslari tahlili vositasida isbotlangan;

Amiriy va Feruz muxammaslari obrazlar talqinidagi an’anaviylik, ularning salafllari ijodidan samarali ta’sirlangan va muxammaslar ichki strukturasi shakl hamda mazmunning mutanosibligi, shuningdek, asar g‘oyasi bilan uyg‘unlikdagi o‘ziga xosligi dalillangan;

XVIII-XIX asrlar o‘zbek mumtoz she’riyatida yaratilgan muxammaslarning janr xususiyatlari, mushtarak va farqli jihatlari Amiriyning Qo‘qon va Xorazm adabiy muhiti vakillariga adabiy ta’siri asosida ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Amiriy muxammaslarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, mavzu-mundariyasi, she’riy obrazlarning o‘ziga xosligi yoritilgan.

muxammasning yuzaga kelishi, tarixiy taraqqiyoti, ma’no-mohiyati va badiiyatini tadqiq etish orqali chiqarilgan xulosalar adabiyotshunoslik uchun yangi ilmiy-nazariy ma’lumotlar berishi, o‘zbek adabiyoti tarixi, o‘zbek adabiyotshunosligi tarixi, adabiyot nazariyasi kabi fanlardan yaratiladigan darslik va qo‘llanmalarning mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

Amiriy va Qo‘qon adabiy muhiti vakillari muxammaslarida ifodalangan g‘oyalar bugungi kun o‘quvchisining dunyoqarashi, tafakkurini shakllantirishda, hamda jamiyatning axloqiy-estetik va ma’naviy-ma’rifiy takomilida muhim ahamiyat kasb etishi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo‘yilgani, chiqarilgan xulosalarning tarixiy-qiyosiy, tavsiflash, biografik va struktural tahlil usullari kabi usullar bilan asoslangani, nazariy ma’lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, nazariy fikr-xulosalar tarixiy-qiyosiy usuli asosida chiqarilgani, ishonchli manbalar hamda lug‘atlardan foydalanilganligi, nazariy qarashlarning amaliyotga tatbiq etilgani, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, chiqarilgan nazariy xulosalar nafaqat o‘zbek, balki jahon adabiyotshunosligida muxammas adabiy shakli, uning poetik xususiyatlari, mavzu-mundarijalar yuzasidan mavjud ma’lumotlarni kengaytiradi va to‘ldiradi. Muxammasning genezisi, tarixiy takomili, badiiyati tadqiq etilishi, natijalarning mumtoz adabiyot bo‘yicha bilimlarni chuqurlashtirishga xizmat qilishi, ko‘plab

ilmiy tadqiqotlarda foydalanish mumkinligi, tadqiqot natijalari o'zbek adabiyoti tarixi, o'zbek adabiyotshunosligi tarixi hamda adabiyot nazariyasi fanlarining rivojiga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ushbu dissertatsiya ishi materiallaridan ta'limning turli bosqichlarida, xususan, oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlarida maxsus kurs yoki seminar mashg'ulotlarini o'tkazishda, umumiy o'rta ta'lim hamda ixtisoslashtirilgan maktablarda o'qitiladigan adabiyot darslarida, shuningdek, mavzuga oid darslik, qo'llanma va risolalar yaratishda material bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** “Amriy va Qo‘qon adabiy muhitida muxammasnavislik an‘anasi” mavzusi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Amiriy ijodida muxammas shaklining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari va muxammasning Qo‘qon adabiy muhitida shakllanishi haqidagi ilmiy-nazariy xulosalaridan O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida Davlat ilmiy-texnika dasturi doirasida amalga oshirilgan 2017–2020-yillarga mo‘ljallangan OT-F1-77 “O‘zbek adabiyoti durdonalari 100 jildligini nashrga tayyorlash” fundamental ilmiy loyihasini bajarishda foydalanilgan (Fanlar akademiyasining 2023-yil 5-apreldagi 3/1255-710-son ma‘lumotnomasi). Natijada mumtoz ijodkorlar lirikasida uchraydigan “musammat”, “muxammas”, “adabiy an‘ana”, “o‘ziga xoslik” tushunchalari tahlil qilinib, mazkur atamalarning lug‘aviy ma‘nosi; muxammas adabiy shaklining taraqqiyot tamoyillari, muxammas shakli orqali yuzaga chiqayotgan g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini ifodalashda qo‘llanilgan tazod, tashxis, tashbih, talmeh, irsoli masal kabi she‘riy san‘atlarning roli kabi masalalar ilmiy dalillar asosida ochib berilgan;

Qo‘qon va Xorazm adabiy muhiti ijodkorlari lirik merosidagi taraqqiyot omillari, o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan xulosalaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida PF-201912258 “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” (2021–2024) fundamental ilmiy loyihasini bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 6-iyundagi 01/6-1467-son ma‘lumotnomasi). Natijada Amiriy va Feruz muxammaslari obrazlar talqinidagi an‘anaviylik, salaflari ijodidan samarali ta‘sirlanganligi, muxammaslar ichki strukturasi shakl va mazmunning mutanosibliigi hamda asar g‘oyasi bilan uyg‘unlikdagi o‘ziga xosligi kabi masalalar ilmiy dalillar asosida yuzaga chiqarilgan;

Amiriy muxammaslarining mavzu ko‘lami, ma‘no qamrovi, badiiy o‘ziga xosligi taxmis va mustaqil tarzda yaratilgan muxammaslari tahlili vositasida isbotlangani bilab bog‘liq xulosalaridan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining adabiy tanqid kengashi hisobot yig‘ilishlarida, Amiriy tavalludining 110 yilligiga bag‘ishlangan adabiy-ma‘rifiy tadbirlarda, yosh ijodkorlar to‘garagi, mahorat darslarida foydalanildi (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2024-yil 11-martdagi 01-03/279-son ma‘lumotnomasi). Bu orqali yosh ijodkorlarda adabiyot nazariyasi, adabiy tur va janrlar yuzasidan bilim va ko‘nikmalar hosil qilingan;

XVIII-XIX asrlar o‘zbek mumtoz she‘riyatida yaratilgan muxammaslarning janr xususiyatlari, mushtarak va farqli jihatlari Amiriyning Qo‘qon va Xorazm

adabiy muhiti vakillariga adabiy ta'siri asosida ochib berilganiga oid xulosalaridan "O'zbekiston" teleradiokanali" DM tomonidan tayyorlangan "G'azal bo'stoni", "Ta'lim va taraqqiyot" nomli dasturlarning ssenariylarida 2022–2023-yil hamda 2024-yil yanvar, fevral oylari sonlarida Amiriyning Qo'qon va Xorazm adabiy muhiti vakillari ijodiga ta'siri, muxammas adabiy shaklining irfoniy, tasavvufiy, rindona mavzulari, muallif g'oyasi, an'anaviy obrazlar tizimi, asar strukturasi syujet hamda kompozitsiyaning mumtoz adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan baholash kabi masalalar borasida tadqiqotchi bilan bevosita suhbat olib borilgan (O'zbekiston" teleradiokanali" DMning 2024-yil 6-martdagi 04-36-342-son ma'lumotnomasi). Natijada Amiriy, Feruz, Nodira, Uvaysiy, Xon, Muqimiy, Furqat, Yoriy ijodidagi o'rni va mumtoz an'analar doirasida qilingan tahlillar radiotinglovchilar uchun muhim ahamiyat kasb etishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari muallifning 8 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 6 ta xalqaro konferensiyadagi chiqishlarida aprobatsiyadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 13 ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 141 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Dissertatsiyaning "*Amiriy muxammaslari poetikasi*" nomli dastlabki bobi "*Muxammas adabiy shakl sifatida*" sarlavhali birinchi faslida muxammasning genezisi, tarixiy takomili, badiiyati xususida bahs yuritilgan.

Adabiyot tarixida musammat turlarining shakllanishi dastlab XI asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi<sup>1</sup>. Musammatning poetik tabiati, spetsifik xususiyatlari haqidagi ilk qarashlar ham ana shu davrlarda yuzaga kela boshlagan. Umar Roduyoniy "Tarjimon ul balog'a" asarida she'riy janrlar, jumladan musammat haqida birinchi marta ma'lumot bergan<sup>2</sup>. Aslida, musammat arabcha "tasmit" so'zidan olingan bo'lib, marvarid donalarini ipga tizmoq, tasmitlamoq demakdir. Musammatning har bir bandi besh misradan iborat bo'lgan turi –

<sup>1</sup> Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 69.

<sup>2</sup> Қаранг: Холлиева Г. Огаҳий мусамматлари. Филол.фан.номз...дисс. – Тошкент, 2000. – Б. 10.

muxammas. Turkiy adabiyotda muxammas haqidagi dastlabki nazariy qarashlar Shayx Ahmad Taroziyning “Funun-ul balog‘a” asarida uchraydi. Kitobning “Al-nav‘u-s-sobeun fil bayonu-l-musammat” bobida quyidagicha yozilgan: “musammati muxammas besh misra’ bo‘lur. To‘rt misra’ning oxirinda saj’ qilib beshinchi misra’da asl qofiyaga ruju’ qilurlar. Misoli bu nav’ erur:

*G‘amzang o‘qina qildi sipar hur-u pari jon,  
Ko‘k ahli bo‘lur ko‘rsa qoshing yosini qurbon,  
La‘ling g‘amida ko‘zdin oqar shom-u sahar qon,  
Bu javr-u jafo kim qiladur jonima hijron,  
O‘lmak bu tiriklikdin o‘lubtur manga oson...<sup>1</sup>*

“Jon”, “qurbon”, “qon”, “hijron”, “oson” qofiyadosh so‘zlarining har bir misrani quvvatlab, she‘riy bandni muayyan bir tizimga yo‘naltirgani va mazmunning teran ifodasiga xizmat qilgani muxammas badiiyatida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Har bir misrada biri ikkinchisi bilan uyg‘unlashib, o‘zaro mutanosiblikni yuzaga keltirayotgan “g‘amza”, “qosh”, “la‘l”, “jon”, “o‘lmak”, “tirilmak” so‘zlari kompozitsiyaning mukammalligi, band semantik strukturasi pishiq va puxtaligini ta‘minlagan.

Sharq she‘riyatida muxammasning taxmis, tashtir, tardiya kabi shakllari ham mavjudki, ular yaratilish usuliga ko‘ra bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Xususan, tashtir adabiy atama sifatida g‘azal baytining birinchi va ikkinchi misralari orasiga satrlar qo‘shish orqali hosil qilinadi, ya‘ni bandning birinchi va oxirgi misrasi boshqa shoirga, o‘rtadagi uch misra tashtir muallifiga tegishli bo‘ladi.<sup>2</sup> Tardiya esa aruzning hazaji musaddasi axrabi makfufi mahzuf (maf‘ulu, mafoiyu, faulun) vaznida yoziladi. Uning har bir bandida to‘rt misra o‘zaro qofiyalanib, beshinchi misra hamisha ochiq qoladi. Tardiya, asosan, fors-tojik adabiyotida yaratilgan. O‘zbek mumtoz adabiyoti, jumladan, Qo‘qon adabiy muhiti vakillari ijodida tardiya muxammasni uchratmadik.

Muxammas faqat har bandi besh misrali she‘rgina emas, balki o‘zaro qofiyadosh satrlarning shakl va mazmun mutanosibligidan tashkil topgan she‘riy guldastadir. Kompozitsion butunlik, o‘ziga xos ohangdorlik, mohiyatan nekbinlikka yo‘g‘rilgan muxammaslarning yaratilishi ham murakkablikka, zavqqa va alohidalikka ega. O‘zbek adabiyotida muxammas shaklida qofiyalangan she‘rlar, eng avvalo, xalq og‘zaki ijodida uchraydi. “Alpomish”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Tohir va Zuhra”, “Kuntug‘mish”, “Ravshan”, “Malikayi Zakriyo” kabi qator dostonlar matnidagi beshlik bandlar fikrimizga yorqin dalildir. Masalan:

*Yo‘qdin mani bor etgan zindonda qo‘lim tutg‘il,  
Giryonda qilib qo‘yma, nolonda qo‘lim tutg‘il,  
Rasvoyi jahon bo‘ldim, hayronda qo‘lim tutg‘il,  
Man chora eta olmasman, armonda qo‘lim tutg‘il,  
Yo shayx Kabir pirim zindonda qo‘lim tutg‘il<sup>3</sup>.*

Bandlarning qofiyalanish tizimi muxammasga muvofiq tushgan: aaaaa (zindonda, nolonda, hayronda, armonda, zindonda). “Qo‘lim tutg‘il” radifi esa

<sup>1</sup> Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға // Ўзбек тили ва адабиёти, 2002/2. – Б. 84.

<sup>2</sup> Banarlı Nihad Sâmi. Resimli türk edebiyâtı târihi. I. – Istanbul: Milli eđitim basimevi, 1983. – B. 209.

<sup>3</sup> Ошиқнома. (Маликаи Завриё) Нашрга тайёрловчи С.Рўзимбоев ва бошқалар. – Хоразм, 2011. – Б. 292.

misralar mazmunini yanada teranlashtirgan. Fikrni har bir misrada tadrijiy rivojlantirish, muayyan bir zanjir kabi tizish va umumlashma xulosa tarzida yakuniy – beshinchi misraga asosiy yukni yuklash xalq og‘zaki ijodidagi beshlik shakllariga xos. Bu esa yozma adabiyotdagi muxammas tabiatini, spetsifikasini belgilovchi muhim jihatdir. Ilmda mumtoz adabiyotda muxammasning yuzaga kelishi uchun g‘azallar asos bo‘lgan, degan qarashlar ham mavjud<sup>1</sup>. Darhaqiqat, taxmis muxammaslar ko‘pincha g‘azallar ta‘sirida yaratiladi. O‘zbek mumtoz she‘riyati, jumladan, Qo‘qon adabiy muhitida ham muxammas g‘azal janridan keyin devonlarda yetakchi o‘rinni egallagan.

Bobning **“Amiriy muxammaslarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi faslida Amiriy muxammaslarining mavzu ko‘lami, badiiy ifoda imkoniyatlari tahlil qilingan. E‘tiborlisi, Qo‘qon adabiy muhitida Lutfiy, Navoiy, Fuzuliy, Jomiy kabi shoirlarning g‘azallariga ko‘plab taxmislar bog‘lanib, muxammasnavislikda ham ularning ijodiy an‘analari davom ettirilgan. Amiriy, Nodira, Uvaysiy, Mahzuna, Muznib, Fazliy, Nola, Xotif, Ma‘yus, Ramziy, Kiromiy, Shavqiy, Sharifiy, Nozik, Jaloliy – deyarli barcha shoirlar ijodida muxammaslar mavjud. Birgina Amiriyning o‘zi Navoiyning 24 g‘azaliga taxmis bog‘lagan. Kamol, Lutfiy, Jomiy, Fuzuliy, Bedil, Zaliliy, Nobiy g‘azallariga ergashib, muxammaslar ijod qilgan. Biz Amiriy muxammaslarini mavzu mundarijasiga ko‘ra quyidagicha tasnifladik: 1. Ishq-muhabbat talqiniga bag‘ishlangan muxammaslar; 2. Rindlik kayfiyati ifodalangan muxammaslar; 3. Pand-nasihat ruhidagi muxammaslar; 4. Hasbi hol xarakteridagi muxammaslar.

Amiriy muxammaslarining bosh mavzusi ishq va oshiqlikdir. Ko‘pincha oshiqlik ahvol-ruhiyasi may va rindlik kayfiyati bilan uyg‘unlashadiki, ishq-muhabbat talqiniga bag‘ishlangan va rindlik kayfiyati ifodalangan muxammaslarni o‘zaro farqlash quyin – bir-birini to‘ldirib, quvvatlab keladi:

*Jon etar yuz shavq ila ul rind istiqbolini,  
Dayr ichida mastliqdin bilmas o‘z ahvolini,  
Ko‘r, Skandar ko‘zgidur, jomi Jam timsolini,  
Ilgida jom-u, ko‘rar may ichra olam holini,  
Yorab, ul Jamshid yo mayxona qalloshimudur?<sup>2</sup>*

Muxammasda oshiq – rindning hol-u matlabi ifodalangan. Rind Jamshid jomi va Iskandar ko‘zgusi orqali dunyoni ko‘radi, anglashga intiladi. Chunki mumtoz adabiyotda jomi Jam, Iskandar ko‘zgusi kabilar inson aqli yetmagan sir-sinoatlarni, olamshumul haqiqatlarni ham oshkor etadigan o‘ziga xos poetik timsollardir<sup>3</sup>.

Amiriyning pand-nasihat ruhida yozilgan muxammaslari orasida Zaliliyning “Bor” va “Yetar” radifli g‘azallariga bog‘lagan irfoniy ma‘nodagi ikki taxmisi alohida mavqe egallaydi. Masalan:

<sup>1</sup> Искандарова С.А. Строрфические формы аруза в тюркско-башкирской поэзии начала XX века Урал –Алтай: через века в будущее: Материалы IV Всероссийской научной конференции, посвященной III Всемирному курултаю башкир. – Уфа, 2010. – С. 131.

<sup>2</sup> Амирий. Девон (I Ўзбекча шеърлар). – Тошкент: Tamaddun, 2017. – Б. 404 (Шоир асарларидан иктибослар мазкур нашрдан олиниб, жилди ва саҳифаси кавс ичида кўрсатилади – Д.А.).

<sup>3</sup> Очилев Э. Бир ховуч дур. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б. 96.

*Sahar chamanda qulog'imga bongi ud yetar,  
Bashorati karam vojib ul-vujud yetar,  
Bu kechakim to'lun oy, sog'arig'a jud yetar,  
Falak piyolasidin sharbati shuhud yetar,  
Savod surma dema, ko'zlarimga dud yetar. (411)*

Muxammasda oshiqqa yetib kelgan sahargi ud sasi karamli Vojibul vujudning azaldagi ishqdan bashoratidir. To'lin oy yorug'idagi kechada esa soqiy saxiylashadi va falak piyolasida "sharbati shuhud" quyadi. She'rda soqiy – ko'ngilga ishq sururini soluvchi<sup>1</sup>, uning sharobi esa ilohiy ma'rifatni tamsil qilgan. Keyingi bandlarda tariqat ahlining asl holati qanday bo'lishi, solikning ahvoli ruhiyasi ifoda topgan. Oshiq ilohiy ishq havosida qush misoli parvoz qiladi, ma'shuqa vaslidan umidvor bo'ladi, bu yo'lda nafs istaklari unutilib, tariqat dashtlarini kezish ishtiyoqi – chin oshiqlik istagi tug'yon qiladi.

Hasbi hol xarakteridagi muxammaslarda shohlik mavqeyi ham, daraja-yu maqomi ham ifoda topadi. Bandlar va misralarda "ishq mulkining Amiri", "muhabbat mulkining sultoniman", "Amir", "Amiri dahr", "ishq Amiri", "saltanat avrangi" jumalari ko'p qo'llanganki, ular orqali shoh va shoir Amiriy qiyofasini yanada yaqqolroq tasavvur etish mumkin. Mana bu faxriya-muxammas ham fikrimizning bir isbotidir:

*Fuzuliy birla Lutfiy, ofarindin aylamas tamkin,  
Erursan chun Amiri, man gadog'a etmagaysan kin,  
Bu nazmimdinki, sar to po erur guldastayi rangin,  
Navoiy, asrabon tamkin, kishidin istama tahsin,  
Chu shah ko'rguzsa istihson, qilib nazmingni mustahsan. (399)*

Umuman, taxmis uchun tanlangan g'azallar Amiriyning she'r ilmi bilimdoni ekanini ko'rsatsa, ta'bi xud muxammaslarida g'azallarida ko'tarilgan mavzular yanada takomillashgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Qo'qon adabiy muhitida muxammasnavislik rivoji"** deb nomlangan. Uning **"Adabiy ta'sir, an'ana va badiiy mahorat masalalari"** faslida Qo'qon adabiy muhitiga xos alohida fazilat – ayollar she'riyatidagi muxammasnavislikka diqqat qaratilgan. Xususan, Uvaysiy, Nodira, Anbar Otin, Dilshodi Barno kabi qator ayol ijodkorlar lirik merosida muxammasning takrorlanmas namunalari mavjud. Uvaysiyning tab'i xud muxammaslardan biri yaratilish usuliga ko'ra o'ziga xos bo'lib, muvashshah badiiy san'ati asosida hosil bo'lgan. Olti banddan iborat muxammasning 2-, 3-, 4-bandlaridagi hurufi hijo harflari o'zaro birlashtirilsa, Vaysiy ismi hosil bo'ladi. Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Nihoniy kabi shoirlar ijodida ham muvashshahlar mavjud. Bu Qo'qon adabiy muhiti vakillarining badiiyat ilmini mukammal egallab, turli she'riy janrlarga o'ziga xos yangiliklar kiritganlariga dalildir. Shunisi ham borki, muxammas-muvashshah dastlab aynan Uvaysiy badiiy tafakkuri mahsuli o'laroq yuzaga kelgan.

Qo'qon adabiy muhiti taraqqiyotida Amiriy bilan yelkadosh turgan Nodira haqli ravishda Sharq mumtoz adabiyotining Lutfiy, Navoiy, Fuzuliy, Mirzo Bedil

---

<sup>1</sup> Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Тошкент: Тафаккур, 2020. – Б. 92.

kabi buyuk namoyandalarini o‘ziga ustoz deb bildi. Ularning g‘azallariga naziralar bitdi, taxmislar bog‘ladi. Ayniqsa, Alisher Navoiyning “*Ko‘ngul jon birla bo‘ldi hamrohing, men dard ila turdim*” satri bilan boshlanuvchi g‘azaliga bog‘lagan muxammasi shoiraning muxammasnavislikda kamolot kasb etganini ko‘rsatadi. Nodira devoniga 11 ta muxammas kiritilgan: 3 tasi – fors-tojik, 8 tasi – turkiy tilda. Ular orasida xonni madh etib yozilgan holiya tab‘i xud muxammas, ayniqsa, diqqatga sazovor:

*Berdi Xudoyi olam davlat bila saodat,  
Davridadur viloyat monandi bog‘i jannat,  
Xushnud erur xaloyiq obod har viloyat,  
Iqbol-u davlatini Haqdin tilab raiyat,  
Maqbul erur Xudog‘a bechoralar duosi.<sup>1</sup>*

Muxammasning har bir bandida Amiriy va uning hukmronlik davrida mamlakatda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari tilga olinadi. Uning davrida yurt gullab-yashnagani, odamlar xushnud, viloyatlar obod ekaniga alohida urg‘u beriladi: “*Davridadur viloyat monandi bog‘i jannat*”, “*Xushnud erur xaloyiq*”, “*obod har viloyat*”.

Qo‘qon adabiy muhitining boshqa bir namoyandasi Dilshodi Barno ijodida ham ijtimoiy hayot talqini ustunlik qilgan. Masalan:

*Kunduzi bo‘lgum visoli dardida zori shifo,  
Hajr dardig‘a tabibimdin tilarman bir davo,  
Bargohi yo‘lida yig‘lab turarman chun gado,  
Quvvatim ketdi tanimdin, zulm yetkuzdi jafu,  
Boz qaytib kulbani vayron etarman tong otar.<sup>2</sup>*

Anbar Otin adabiy merosida 4 ta muxammas bo‘lib, ular Dilshodi Barno muxammaslari bilan mazmunan yaqin: yurtga muhabbat, farzand sog‘inchi mavzulari yoritilgan. Chunonchi:

*Degilki, bolam, bu so‘zlarim o‘ylagil taningga,  
Xizmat qilako‘r el uchun bu dono Vataningga,  
El rohati-yu g‘amini qabul et taningga,  
Bovar qila ko‘r kelgusida yashnoq mard-u zaningga,  
Farzand-u qarindosh qabul etsun ishoratingni.<sup>3</sup>*

Shoira xalq o‘g‘lonlarini tug‘ilib o‘sgan yurtiga xizmat qilishga da‘vat etar ekan, ona yurtga nisbatan “dono Vatan” sifatlashini ishlatgan. Uning talqinicha, Vatan hamma narsani biluvchi, ko‘ruvchi va saboq beruvchi donishmanddir.

Bobning “*Muxammasnavislik tadriji: mavzu va ifodadagi yangilanishlar*” deb nomlangan ikkinchi faslida Amiriyning o‘zidan keyingi ijodkorlarga ta’siri masalasi o‘rganilgan. O‘z davrida Amiriyning o‘g‘li Muhammad Alixon ham Xon taxallusi bilan she’rlar ijod qilgani ma’lum. “Tazkirayi Qayyumiy”da keltirilgan “Inju dishi jon qulzumi ichra guharimdur” misrasi bilan boshlanuvchi 6 bandli Fuzuliy g‘azaliga Xonning muxammasi esa boshqa manbalarda uchramasligi bilan

<sup>1</sup> Turkiy adabiyot durdonalari. Uvaysiy. Nodira. 100 jildlik, 10-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – B. 346.

<sup>2</sup> Дилшод. Танланган асарлар (нашрга тайёрловчи М.Қодирова). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972. – Б. 73

<sup>3</sup> Зебуннисо, Дилшод ва Анбар Отинлар шеърятидан. – Тошкент: Ўзбекистон, 1981. – Б. 104.

xarakterli<sup>1</sup>. Jumladan:

*Inju dishi jon qulzumi ichra guharimdur  
Ikki labi dil mahzanida la'llarimdur  
Bu juzvaya mahrum alardin nazarimdur  
Namlu edajak domanimni chashmi tarimdur  
Pur la'l edan chashmimi xuni jigarimdur<sup>2</sup>.*

Xon poetik mahoratining bir qirrasini muxammas uchun asos bo'lgan g'azal va muxammas tilining o'zaro yaqinligida ko'rinadi.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlari Qo'qon adabiy muhitining zabardast vakillaridan biri, shubhasiz, Muqimiydir. Muqimiy Amiriyning 9 ta g'azaliga muxammas bog'lagan: "Mijgoning", "Amir", "Muborak", "Shirin", "Qo'zg'olmasun", "Kokul", "Xo'b bo'ldi" radifli hamda "Qoshingga teguzmagil qalamni", "Kim ko'z ochma-yu yosh to'kmay to qonli mijam" misralari bilan boshlanuvchi g'azallarga betakror taxmislar qilgan. Masalan:

*Ummid shishasig'a rahm etmayin tosh urding,  
G'am lashkarin yuborib, ey zulmxo', shoshurding,  
Oshnoya bermay unvon, begonani oshurding,  
Xo'b bo'ldi, orazingni oyinadin yoshurding,  
Ey sho'xi moh tal'at, sharm-u hayo muborak<sup>3</sup>.*

Dissertatsiyada Muqimiyning Amiriyni muxammaslariga bog'lagan taxmisleri adabiyotshunoslar E.Ochilov va Q.Pardayevlarning maqolalarida keltirilgan ma'lumotlar asosida atroflicha ochib berildi.

Qo'qon adabiy muhitning zabardast vakili Furqat ijodida ham muxammaslar muhim o'rin tutadi. Shoir muxammaslari orasida, ayniqsa, o'z g'azaliga bog'lab yaratgan "Adashganman" radifli taxmis-muxammasi mazmun-mohiyati, badiiy xususiyatlari bilan diqqatga loyiq. Bu she'r xususida M.Shayxzoda, professorlar A.Abdug'afurov, G'.Karimov ham u yoki bu darajada fikr bildirishgan<sup>4</sup>. Muxammasda shoir bir obrazga alohida o'rin bergan. U – "sohib karomat" shaxs. Professor N.Jabborov muxammas muallifi bu bilan "tariqat mulkini shohi, haqiqat sirrin ogohi" deganda qodiriya tariqati rahnamosi Abdulqodir Jiytoniy<sup>5</sup> nazarda tutganini yozadi. Shoir "sohib karomat" va muruvvatpesha do'sti, "piri komil"ning sifatlarini quyidagicha xarakterlagan:

*Sayodat charxini mehri, asolat avjining mohi,  
Shahi mulki fano kursiyo shamsa, arsh xirgohi,  
Yetushmas xoki kuyig'a Sikandar hashmati johi,  
Tariqat mulkini shohi, haqiqat sirrin ogohi,  
Ushandoq piri komil xonadonidin adashganman<sup>6</sup>.*

<sup>1</sup> Жўрабоев О. Хон адабий меъросига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 2017/6. – Б. 124-133.

<sup>2</sup> Қаюмов П. Тазкирайи Қаюмий. – Тошкент: ЎзФА Қўлёзмалар институти тахририй нашриётлар бўлими, 1998. – Б. 172.

<sup>3</sup> Муқимий. Тўла асарлар тўплами (Тузувчи: Абдуллатиф Турдалиев ва б.) – Тошкент: Iqtisodiyot, 2021. – Б. 184.

<sup>4</sup> Абдуғофуров А. Зокиржон Фуркат. – Тошкент, 1977. – Б. 59 – 68.

<sup>5</sup> Жабборов Н. Фуркатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси. Фил.фан.д-ри ... дисс. – Тошкент, 2003. – Б. 117.

<sup>6</sup> Зокиржон Фуркат. Ishqingda kuyub, jono... (nashrga tayyorlovchi N.Jabborov). – Toshkent: Adabiyot, 2021. – B. 94.

Bu tavsiflardan ma'lum bo'ladiki, "sohib karomat" inson asli ajdodi, ilmi, yurish-turishi, shakli-shamoyili, turmush tarzi bilan shoirning hurmat va ixlosini qozongan. Lirik qahramon shundoq valiysifat kishining "xonadon"idan yiroqlashgani – adashganiga afsus-nadomat qiladi.

Qo'qon adabiy muhiti muxammasnavisligida o'z o'rniga ega shoirlardan yana biri Yoriy edi. Shoir muxammaslari asosan diniy, irfoniy mazmunlarni ifodalagan. Xitobat san'ati – "Yo Rab" bilan boshlangan sakkiz bandli muxammasida esa murojaat qirq marta takrorlanib, poetik jozibani yuzaga keltirgan:

*Yo Rab, mening kabi bir bandangni qilma xasta,  
Yo Rab, ko'ngil nazargoh qilma oni shikasta,  
Yo Rab, ko'ngil chu tayyor qo'yma oni qafasta,  
Yo Rab, iki jahoning sayr aylasun nafasta,  
Yo Rab, ko'ngil uloshsun dildori jonajonga<sup>1</sup>.*

Qo'qon adabiy muhitining yana bir iste'dodli vakili Firoqiy adabiy me'rosida 69 muxammas o'rin olgan<sup>2</sup>. Ularning aksariyati ishq talqiniga bag'ishlangan. E'tiborlisi shundaki, Firoqiy va Charxiyning o'zaro birgalikda ijod qilgan mushoira-muxammasi o'zbek mumtoz adabiyoti uchun betakror yangilikdir.

Firoqiy:

*Nigoro, bir yo'li boq holi zorimdan xabar olg'il,  
Muhabbat shavqi birlan axborimdan xabar olg'il.  
Ko'zim yoshida ungan lola zorimdan xabar olg'il,  
Fig'onim haddan oshdi holi zorimdan xabar olg'il,  
O'lar holatg'a yetdim, kel mazorimdan xabar olg'il.*

Charxiy:

*Biyobonlarga chiqsam maskanim uzra turorim yo'q,  
Na qilg'um chorasiz dardga tushtum hech qarorim yo'q,  
Yutib zahr-u g'aming, ey gul, alimda ixtiyorim yo'q,  
Firoqing torta-torta joni jismimda madorim yo'q,  
Xazon urgan g'aming birlan bahorimdan xabar olg'il<sup>3</sup>.*

Kuzatishimizcha, Qo'qon adabiy muhitida yaratilgan muxammaslar mavzu-mundariyasi, g'oya va obrazlar e'tibori bilan o'zigacha yaratilgan adabiyotga hamohanglik kasb etgan bo'lsa, ifoda tarzi va ayrim poetik xususiyatlariga ko'ra alohida jihatlariga egadir.

**"Amiriy va Xorazm adabiy muhiti shoirlari ijodida muxammasnavislik"** nomli uchinchi bobning **"Amiriy va Feruz muxammaslari: o'zaro o'xshashlik hamda tafovutlar"** deb nomlangan birinchi faslida Amiriy hamda Feruz muxammaslarining badiiy qiymati, ikki adabiy muhitning o'xshash va farqli

<sup>1</sup> Джураев М. Ёрмухаммад Ёрий - шоир, таржимон [Матн]. – Тошкент: Bookmany print, 2022. – Б. 132.

<sup>2</sup> Jo'rayeva G. Firoqiyning na't muxammasi // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2023. № 3. –B. 88-91; Jo'rayeva G. Firoqiy she'riyatida ittifoq san'ati // Ilm sarchashmalari. – Urganch, 2023. – № 8. – B. 80-82; Jo'rayeva G. Firoqiy va Partav // FarDU. Ilmiy xabarlar. – Farg'ona, 2023. – №6. – B. 233-236; Jo'rayeva G. In particular of some edges of Firoqi's artistic skills // Novateur Publications Journal INX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. ISSN: 2581-4280. 2023. № 9. – P. 278-280; Jo'rayeva G. Firoqiy devoni: tuzilishi va tarkibi. // "Qo'qon adabiy muhiti va uchinchi renessans" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Qo'qon, 2022. – B. 496-502.

<sup>3</sup> Фирокий. Девон. Қўлёзма. – Б. 121.

jihatlari haqida mulohaza yuritildi. Qo‘qon va Xorazm adabiy muhitining ikki haqiqiy sarboni Umarxon Amiriy hamda Muhammad Rahimxon II (Feruz) ijodida muxammas eng ko‘p murojaat etilgan she‘riy shakllardan biridir. Ma‘lumki, saj‘ fikrni ravon, yengil ifodalashda, o‘quvchi va tinglovchiga estetik zavq ulashishda, adabiy matnning yodda qolishini osonlashtirishda ijodkorga o‘ziga xos imkoniyat yaratuvchi badiiy san‘at turidir. Amiriy ham muxammaslarida saj‘dan unumli foydalangan. Jumladan, Navoiyning “Muvofiq kiydilar...” nomli g‘azali ichki qofiyaga asoslangan bo‘lib, Amiriy unga yozgan taxmisida musajja‘ usulini saqlab qoladi – badiiy mahorat ko‘rsatadi:

*Iki ko‘zi erur kofir, chekib mijgonidin xanjar,  
Xati la‘ling erur axzar, dahoning chashmayi Kavsar,  
Xirome o‘ldi jonparvar qadi sarfitnayi mahshar,  
Chaman sarvi qolib bebar, mening sarvim bo‘lib dilbar,  
Ani yel aylabon muztar, bu yeldek sekretib adham. (390)*

